

MINGYAPROQLI BO'YMODARONNING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA ISHLATILISHI

Annamuratova D.R –
b.f.n., dots., UrDU

Bekchanova M.K –
o'qituvchi, UrDU

Kamolova X.X. -
UrDU biologiya yo'nalishi 1- kurs magistr

Egamberdieva S.A –
UrDU biologiya yo'nalishi talabasi.

Hozirgi vaqtda kimyo fani keng taraqqiy etib ketdi. Natijada tez ta'sir etuvchi yangidan-yangi dori-darmonlar sintez qilib olinmoqda, biroq shunga qaramay, dorivor o't o'simliklarga bo'lgan talab xalq orasida hamon muhim ro'l o'ynaydi. Tabiblar amaliyotda foydalangan o't o'simliklarning aksariyati hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki ilmiy tekshirishlar natijasida shu o'simliklarni yangidan-yangi shifobaxsh xususiyatlari topilmoqda.

Sintetik kimyoning jadal rivojlanishi va aksariyat dori-darmonlarning kimyoviy yo'l bilan tayyorlanishiga qaramasdan 45% dorivor preparatlar shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanadi, shulardan 80% yurak qon-tomir sistemasi dorilaridir.

Sintez yo'li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatlarni uzoq vaqt mobaynida uzluksiz ravishda qabul qilish inson organizmida turli noxush o'zgarishlarning, ayniqsa, keying vaqtda allergik kasalliklarning ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'simliklar esa inson organizmida sintetik dori vositalariga qaraganda bo'lakcha ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda qo'llaniladigan shifobaxsh giyohlarning organizmga ko'proq mahalliy samarali ta'sir ko'rsatishi tufayli ular insonga mutloq bezarardir. Shuning uchun dorivor o'simliklarga va ulardan olinadigan dorilar preparatlarga - fito preparatlarga bo'lgan talab va ehtiyoj nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda ortib bormoqda.

Bo'ymodaron shifobaxsh bo'lib, uning tarkibida ko'p miqdorda vitamin S, K, karotin, fitontsidlar, efir moylari, glikoalkaloid, ahillein, flavonoidlar, organik kislotalar, mikroelementlar shuningdek oshlovchi achchiq moddalar, efir moylari uchraydi [4].

Tibbiyotda yer ustki qismi va guli ishlatiladi.

Bo'ymodaronning yer ustki qismi va gullari tarkibida 0,06-0,8 % efir moyi, 9-13 mg. % karotin, 74.8 mg. % vitamin S va K, flavonoidlar (aspeginin, lyuteolin va ularning glikozidlari) holin, asparagin, smolalar bor. Efir moyi 1-4 % gacha xamazulen, 8-10 % tsineol, borneol, 13 % gacha bornilatsetat, tuyon kislotalar va boshqa terpenoidlardan tashkil topgan.

Mahsulot tarkibida 0,05% axillein va betonitsin alkaloidlari matrikarin izomeri, millefin laktoni 0,31 % holin bor. Efir moyi tarkibida kamfora, kariofillen, 10 % gacha tsineol, chumoli, sirka va valerian kislotalar bor.

Achillea millefolium L. turi farmatsevtika sanoatida tarkibida fiziologik faol moddalarga boy bo'lgan istiqbolli xom ashyo zahirasi sifatida belgilanadi, tarkibidan ajratib olingan antotsianidin va seskviterpen laktonlar – azulenlar tadqiqotlarda shamollashga qarshi, allergiyaga qarshi va antibakterial ta'sir xususiyatlarini namoyon qilishi aniqlangan [5].

Shuningdek, mingyaproqli bo'ymodaron tarkibida mavjud bo'lgan xamazulen moddasi organizmida fiziologik faol moddalarning antioksidant ta'sir xususiyatini kuchaytirishi aniqlangan.

Bo'ymodaronidan ajratib olingan antotsianidin qon tomir devorlarini mustaxkamlashi, yurak – qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda samarali ijobiy ta'sirga egaligi qayd qilingan.

Dori preparatlari – damlamasi, suyuq ekstrakti me'da yarasi, gastritni davolash, ishtaha ochish hamda qon oqishini (ichak, bachadon, burun, milk yaralardan va gemorroidal qon oqishlarni to'xtatuvchi yara bo'lgan va jaroxatlangan joylarni, oshqozon ichak xastaliklarini, zotiljam, bosh og'rig'ini davolovchi, ishtaxa ochuvchi, siydik haydovchi omil sifatida ham ishlatiladi [1,4, 3]. Damlamasi turli qon oqishlarda (qon tupurish, qon aralash ich ketish) ishlatiladi.

Bo'ymodaron guli kukunini asalga qorib yeyilsa gijjani tushiradi [1].

Burundan qon oqqanda uni to'xtatish uchun yangi yig'ilgan bargni yaxshilab ezib

Zamonaviy tabobatda bo'ymodaron o'simligidan tayyorlangan galen preparatlar silliq muskullarning tortishib, qisqarib turishini bartaraf etishi aniqlangan, shuning uchun og'riqlar kamayib, o't ajralishi, peshob kuchayadi. O'simlikning bu xossalari tarkibidagi flavonoidlar va efir moylariga bog'liq. Unda achchiq moddalar borligi tufayli me'dadan shira ajralishi kuchayib, qorin dam bo'lishi kamayadi. Bu o'simlikda oshlovchi moddalar, efir moylari va boshqa moddalar borligidan, u yallig'lanish, allergiya, bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi, jaroxatlarning tezroq bitib ketishiga yordam beradi. Bo'ymodaron o'tining damlamasi yurak ishini sekinlashtirib, qon bosimini pasaytirishi hayvonlar ustidagi tajribalarda aniqlangan. Bo'ymodaron o'tidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstrakti me'da yarasi, gastrit kasalliklarida ishtaha ochadigan vosita tariqasida buyuriladi, siydik yo'llari kasalliklarida yallig'lanishga qarshi, shuningdek qon to'xtatuvchi vosita sifatida ham ishlatiladi [4].

Bo'ymodaron gulidan kosmetika sohasida keng qo'llaniladi. Undan tayyorlangan damlama bilan kompress qilinsa, kishi yuzidagi husnbuzar, chipqon, sizlog'ich va boshqa toshmalarga malham bo'ladi.

O'simlikdan olinadigan efir moylari sanoat ko'lamida tayyorlanadigan moy - upa, xushbo'y losyonlar tarkibiga qo'shiladi. Ular terini latiflashtiradi, rangini tiniqlashtiradi [4].

Achillea millefolium L. turi farmatsevtika sanoatida tarkibida fiziologik faol moddalarga boy bo'lgan istiqbolli xom ashyo zahirasi sifatida belgilanadi, mingyaproqli bo'ymodaron tarkibidan ajratib olingan antotsianidin va seskviterpen laktonlar – azulenlar tadqiqotlarda shamollashga qarshi, allergiyaga qarshi va antibakterial ta'sir xususiyatlarini namoyon qilishi aniqlangan [5].

Shuningdek, mingyaproqli bo'ymodaron tarkibida mavjud bo'lgan xamazulen moddasi organizmda fiziologik faol moddalarning antioksidant ta'sir xususiyatini kuchaytirishi aniqlangan.

Bo'ymodaron dan ajratib olingan antotsianidin qon tomir devorlarini mustaxkamlashi, yurak – qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda samarali ijobiy ta'sirga egaligi qayd qilingan.

Achillea turkum vakillari xammasi dorivor o'simliklardan biri xisoblanadi, lekin ularning ba'zilar tibbiyotda ba'zilar esa qadim zamonlardan beri xalq tabobatida ishlatilib kelinmoqda. *Achillea filipendulina* va *Achillea biebersteinii* xalq tabobatida keng qo'llaniladi, lekin ilmiy tabobatda undan dori preparatlari tayyorlashda foydalanilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аминева А.А. Тысячелистник азиатский – *Achillea asiatica* Serg. в Зауралье // Автореф. дисс. ... к.б.н. – Москва, 2003. – 23 с.
2. Тахтаджян А.Л. Система магнолиофитов. – Л., 1978. – 438 с.
3. Хамидов И., Шukurullaev P., Tarasova Ye., Qurbonov Yu., Umrzoqov A. Botanika asoslari. – Toshkent: Mexnat, 1990. - 318 b.
4. Xoliqov K. O'zbekistonning janubidagi dorivor o'simliklar. - Toshkent: Mexnat, 1992. - 76 b.
5. Xolmatov X.X. Dorivor o'simliklar. - Toshkent: Ibn Sino, 1994. - 365 b.
6. Salavatova K., Annamuratova D. THE EFFECT OF PROCESSING SOYBEAN SEEDS BEFORE THE CULTIVATION TO THE DEVELOPMENT, GROWTH AND YIELD OF THE PLANTS //Actual Problems of Applied Sciences Journal World. – 2019. – №. 5. – С. 112-117.
7. Rustamov G. S. et al. The effectiveness of biological treatment of domestic wastewater on the example of treatment facilities in the city of bekabad, Tashkent region //European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2020. – T. 7. – №. 11. – С. 267-276.